

ATMOSFERA YOG'INLARIDAN UNUMLI FOYDALANISH

X. N. To'xtamurodova

*“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti,
o'qituvchisi*

E.G.O'ralova

*“TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institute
talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada atmosfera yog'inlaridan unumli foydalangan holda samarali natijalarga erishish mumkinligi hamda, iqtisodiyotimiz uchun qancha foyda olib kelishini va bundan tashqar ekinlar uchun atmosfera yog'inlarining ahamiyati, o'rnini va shu bilan birga olma daraxtining atmosfera yog'inlaridan foydalangan holda qanday natijaga erishganimizni ko'rib chiqamiz.*

Аннотация. *В этой статье можно добиться эффективных результатов за счет эффективного использования атмосферных осадков, и какую пользу это приносит нашей экономике, а кроме того, значение и место атмосферных осадков для сельскохозяйственных культур, и в то же время, как мы добились результат использования атмосферных осадков для яблони мы увидим.*

Abstract. *In this article, it is possible to achieve effective results by effectively using atmospheric precipitation, and how much benefit it brings to our economy, and in addition, the importance and place of atmospheric precipitation for crops, and at the same time, how we achieved the result of using atmospheric precipitation for an apple tree. we will see.*

Kalit soʻzlar. *Atmosfera yogʻinlari, Gʻallachilik, Bogʻdorchilik, Kasallik, zararkunandalar, Koʻchat, Iqtisodiy samaradorlik, Olma daraxti, lalmi yerlar.*

Ключевые слова. *Атмосферные осадки, Производство зерновых, Садоводство, Болезни, вредители, Рассада, Экономическая эффективность, Яблоня, засушливые земли.*

Key words. *Atmospheric precipitation, Cereal production, Horticulture, Diseases, pests, Seedlings, Economic efficiency, Apple tree, drylands.*

KIRISH

Atmosfera yogʻinlari – bulutlardan yogʻadigan yoki havoda suv bugʻlarining kondensatlanishi natijasida yer yuzasiga va oʻsimliklar sirtiga tushadigan tomchi yoki muz holatidagi suv. Bulutlardan yomgʻir, qor, hoʻl qor va muz donachalari, doʻl va hokazo yogʻadi. Atmosfera yogʻinlari davomli va oʻrtacha tezlikda, jala shaklida va mayda shivalab yogʻuvchi yogʻinlarga ajratiladi. Davomli va oʻrtacha tezlikda yogʻuvchi Atmosfera yogʻinlari qatlamli yomgʻir beruvchi va yuqori qatlam bulutlardan yogʻadi. Ularning yillik miqdori tekisliklarda oʻrtacha 100 – 200 mm, togʻ oldi va togʻli rayonlarda 500 – 1000 mm, baʼzan 1500 mm va undan koʻproq. Yogʻinlar tekisliklarning katta qismida, togʻ oldi va baʼzi tomi rayonlarda yoz oylarida eng kam, bahor (mart – aprel) yoki kuz (oktabr – noyabr)da eng koʻp yogʻadi. Shimoliy va baland togli rayonlarda esa eng koʻp yogʻingarchilik aprel – may oylarida kuzatiladi. Yozda faqat togli rayonlardagina yogʻingarchilik boʻladi.

Atmosfera yogʻinlari qish – bahor davrida yerda tuproq nam zaxirasini hosil qiladi, bu esa qishloq xoʻjaligida katta ahamiyatga ega. Atmosfera yogʻinlari yetarli (yiliga 200 mm va undan koʻproq) boʻlgan sharoitlarda ekilgan ekin tabiiy nam hisobiga unib chiqadi, natijada birinchi sugorishni keyinroqqa surish mumkin boʻladi.

G'allachilik yo'nalishida: Ko'p yog'inlar boshqoli don mahsulotlari rivojiga rivoj qo'shmoqda. Xaydov yerlarida namlik zaxirasi ortmoqda, past harorat va yuqori namlik bug'doy tuplarida qo'shimcha poya hosil qilmoqda. Ko'p yog'in gektariga bir martalik 750-900 m³ suvni iqtisod qilinishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, lalmi maydonlardagi g'alla rivoji va hosili uchun barokatli yog'inlar bo'lmoqda. Umuman olganda boshqa ekinlarda ham atmosfera yog'inlaridan foydalanish katta samara bermoqda.

Bog'dorchilik yo'nalishida: Tinimsiz har kuni yog'ayotgan yomg'ir bugungi kunda gullash fazasiga kirgan o'rik, shaftoli, bodom bog'lari hosildorligiga zarar yetkazmaydi. Faqat changlanish muddatini sekinlashtirishi mumkin. Qolgan mevali bog'larimiz bugungi kunda gullash fazasida emasligi sababli zarar kuzatilmaydi.

Biz 5 yil oldin mana shu ma'lumotlarga tayanib atmosfera yog'inlarini hovuz orqali yig'ib olma daraxti ekkan edik va ilmiy tadqiqotlarimiz yaxshi natija berdi, olma daraxtini ekish jarayoni bilan tashtirsak. Maydonning har kvadrat metrga 6-8 kg go'ng, chirindi, 200-250 g fosfor, 100-120g kaliy va 150-200 g ammoniyli azot o'g'it solinib, chuqur 25-30 haydalandi va olma kochatlarini ekdik.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Olma daraxtiga zararkunandalardan olma qurti (mevaxo'r), meva kanasi, binafsha rang qalqondor, kasalliklardan un shudring, kalmaraz (parsha), monilioz zarar keltiradi. Binafsha rang qalqondorga qarshi erta bahorda kurtaklar yozilgunga qadar Karate 5% em.k. purkaladi. Bundan tashqari, Perfekto 17,5% sus.k., Bagira 20% em.k. (10 sotix maydonga 15–20 ml) preparatlari bilan ishlov beriladi. Olma qurtiga qarshi Perfekto 17,5 % sus.k. (10 sotixga 15–20 ml) Karate 5 % em.k. (100 l suvga 30–40 g) qo'llanilganda yaxshi samara beradi. Meva kanasiga qarshi Perfekto 17,5 % sus.k. (10 sotixga 20–30 ml) purkaladi. Olmaning kalmaraz (parsha), monilioz kasalliklariga qarshi Bordo suyuqligining 3 foizli (100 l suvga 3 kg mis kuporosi va 3 kg so'ndirilmagan ohak) eritmasi sepiladi. Kasalliklarga qarshi tadbirlar dori vositalari kurtaklar yozilguniga qadar o'tkazildi. Shu tariqa olma daraxtini hosil berguniga qadar dorilash ishlari olib borildi.

Hosilni yig'ishtirish. Olmani pishish muddati oktyabr oyining boshlarigacha davom etdi. Ular bir terim bilan yig'ishtirib olindi.

Iqtisodiy samaradorligi: Olma daraxti 20 sotix tomorqaga 5×5 m sxemada ekilgan 80 dona ko'chat ekilgan edi, 80 dona ko'chatimiz 5 yilda hosilga kirib, 1 dona daraxtimizdan o'rtacha naviga qarab 25 kg hosil jami 2000 kg hosil oldik. 2000 kg olmamizni o'rtacha 10000 so'mdan sotib umumiy hisobda 20 000 000 so'm daromad oldik.

Ko'chat ekilganda ikki haftada bir sug'orilgan va kattalashgan sari yiliga 10-12 marotaba sug'orilgan, olma daraxti mevaga kirguniga qadar lalmi yerlarda faqat atmosfera yog'inlari orqali sug'orib kelingan, bu qannday amaliga oshirilgan dib o'ylashingiz mumkin albtt.

Atmosfera yog'inlarini yig'ib usti yopiq hovuz [Sardoba] shaklini eslatuvchi hovuzga yomg'ir qordan yig'iladigan suvlarni yig'ib olma daraxtini meva bergunga qadar suv bilan ta'minlagan va atmosfera yog'inlaridan bunday foydalanishda yaxshigina natijaga erishildi. Bundan tashqari hovuz hajmini kattalastirgan holda boshqa ekinlarda ham ya'ni lalmi yerlarni o'zlashtirishda ham foydalanib yaxshi natijaga erishilish rejalashtirilmoqda.

XULOSA

Yuqorida keltirib o'tgan lalmi yerlarda g'alla, bog'dorchilik va bundan tashqari boshqa ko'plab ekinlarda umuman olganda lalmi yerlarda unumli va barakali hosil olishda atmosfera yog'inlarini o'rni juda katta ekanligini isbotlab o'tdik, atmosfera yog'inlarini yig'ib ham yaxshigina natijaga erishdik va bu jarayonni dexqonlarimiz ko'plab lalmi yerlarni o'zlashtirishda foydalanish va qishloq xo'jaligida umuman olganda iqtisodiyotimizga katta hiss qo'shishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sul'tonov A.S., Xudoyberganov Z.Ya., Qo'chqorova S.A. Suv xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik) – T.; TIMI, 2007 .

2. Abdugʻaniyev A. Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish iqtisodiyoti fani boʻyicha mavzular. T. 2001y.

3. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. T.: «Oʻzbekiston» 1996 yil 58 bet.

4. Karimov I. A. Qishloq istiqboli – yurt istiqboli. T.: 1996 yil 115 bet.

5. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. «Ekonomika (perevod s angliyskogo), M.: Delo, 2001 god.

6. Fisher S. «Ekonomika+Rukovodstvo po izucheniye uchebnika «Ekonomika» M. 2001 god.

7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Atmosfera>.

8. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBsimliklarni_himoya_qilish.

9. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yovvoyi_olma.

10. <https://www.agro.uz/olma-2/>.

11. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oлма>.